



UDK: 811.113:512.133 (575.1)

Shirin ESHMURODOVA,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

E-mail : saipovashirin118@gmail.com

O'zMU dotsenti, DSc G.Kurbonova taqrizi asosida

FRAZEOLIGIK BIRLIKlarda EMOTSIONAL HOLATNING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI

Annotatsiya

Maqolada emotional holat lingvistik kategoriya sifatida o'rganiladi. Mazkur kategoriya hissiy frazeologik birlikda obyektivlashtirilgan ma'lum xususiyatlarga ega. Ushbu frazeologik birliklarda ifodalangan hissiy holatlar tarkibiy xususiyatga ega bo'lib, u subyekt va sabab kabi tarkibiy elementlarning o'ziga xosligida namoyon bo'ladi, ya'ni subyektning mavjudligi frazeologiyani bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarining semantik darajasidir. Sabab esa, hissiy holatlarni ifoda etgan elementning tuzilishi sifatida, frazeologik belgidan tashqarida semantik jihatda ham, frazeologik tuzilishida ham aks etmaydi. Shuningdek, Til o'rganishga antropotsentrik yondashuv tilining emotsional holatlarni obyektivlashtiruvchi frazeologik birliklarini tizimli ravishda lingvistik makonda "insonning hissiy holatlari" frazeosemantik maydoni shaklida taqdim etishga imkon beradi, bu esa uning tarkibini ifodalovchi o'rganilayotgan frazema elementlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Antropotsentrik paradigmalingvistik kategoriya, hissiy frazeologik birlik, subyekt va sabab, Olamning hissiy manzarasi, milliy obrazlar, milliy xarakter.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация

В статье эмоциональное состояние исследуется как лингвистическая категория. Данная категория имеет определенные особенности, объективизированные в эмоциональном фразеологизме. Эмоциональные состояния, выраженные в этих фразеологизмах, имеют структурную природу, которая проявляется в тождественности таких структурных элементов, как субъект и причина, то есть наличие субъекта является смысловым уровнем одного или нескольких компонентов фразеологии. Причина, с другой стороны, как структура элемента, выражающего эмоциональные состояния, не отражается ни в семантическом аспекте, ни во фразеологическом строении вне фразеологического знака. Также антропоцентрический подход к изучению языка позволяет систематически представлять объективизирующие эмоциональные состояния фразеологизмы языка в языковом пространстве в виде фразеосемантического поля "эмоциональные состояния человека", что способствует выявлению элементов изучаемой фразеологии, представляющих ее содержание.

Ключевые слова: Антропоцентрическая парадигма-лингвистическая категория, эмоциональный фразеологизм, субъект и причина, эмоциональная картина мира, национальные образы, национальный характер.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL CHARACTERISTICS OF THE EMOTIONAL STATE IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

The article examines the emotional state as a linguistic category. This category has certain features objectified in emotional phraseology. The emotional states expressed in these phraseological units have a structural nature, which is manifested in the identity of such structural elements as the subject and the reason, that is, the presence of the subject is the semantic level of one or more components of phraseology. The reason, on the other hand, as the structure of an element expressing emotional states, is not reflected either in the semantic aspect or in the phraseological structure outside the phraseological sign. The anthropocentric approach to language learning also makes it possible to systematically represent objectifying emotional states of phraseological units in the linguistic space in the form of the phraseosemantic field "human emotional states", which helps to identify the elements of the studied phraseology that represent its content.

Key words: The anthropocentric paradigm is a linguistic category, emotional phraseology, subject and cause, emotional picture of the world, national images, national character.

Amerikalik psixolog V.Jeyms, hissiyotlarning "periferik" nazariyasi muallifi, hissiyotlarni insonning organik ehtiyojlarini quyi va murakkab fikrlash jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan yuqori ehtiyojlarga ajratadi. U odamning hayajonli his-tuyg'ularni inson tanasida standart o'zgarishlar tajribasi natijasida hayrat, qiziqish, zavq, qo'rquv, g'azab, shahvat, ochko'zlik kabi xususiyatlarga ajratadi.

V.Jeyms hissiyotlarning uchta guruhini ajratadi: 1) nisbatan kuchli jismoniy qo'zg'alish bilan yuzaga keladigan "qo'pol shakllar"; 2) jismoniy qo'zg'alish bilan bog'liq bo'lgan "nozik his-tuyg'ular", lekin ular hodisalarni tushunishga asoslangan. Uchinchi guruhda V.Jeyms asab tizimining murakkabligi tufayli paydo bo'ladigan "tasodifiy" hissiy reaksiyalarni birlashtiradi [5].

Fransuz psixologi T.Ribo hissiy holatlarning besh turini aniqlaydi: 1) yoqimli, 2) yoqimsiz, 3) qo'rquv holati, 4) qo'zg'alish holat 5) har bir hissiyotning o'zgaruvchanligi va bir turli emasligi tufayli paydo bo'lgan aralash tur [6].

Fransuz psixologlarining inson hissiyotlari sohasidagi zamonaviy tadqiqotlari turli tasniflarni taklif yetadi. M.Lavirey mazkur inson hissiyotlarini quyidagilarga ajratadi: 1. Oddiy his-tuyog'ular (émotions simples). (Are the emotions proper, in their simplest expression). 2. Aralash his-tuyg'ular (mixed emotions): Ular ikki va undan ortiq his-tuyg'ularga bo'linadi. (They are composed of several emotional experiences. They usually contain one or two emotions and other kinds of experiences that serve to defend against one of these emotions.) Aralash turlarga ayb, rashk, nafrat, achinish va uyat kiradi. 3. Salbiy hissiyotlar (émotions repoussées). These are usually body-dominated experiences. They take place when we repel an emotion or avoid its expression. These are anxiety, anguish, weakness, a knot in the stomach, stuttering, a lump in the throat. 4. Pseudo-issy-tatlar (pseudo-emotions). They are the appearance of emotion. A way to express what one feels without evoking emotion [7].

Tilshunoslarning e'tiborini uzoq vaqtdan beri inson ichki hayotining hissiy jihatlarini bilan bog'liq bo'lgan lisoniy

xususiyatlari jalb qilgan. V.I.Shaxovskiyning so'zlariga ko'ra, emotsiyasini ifodalovchi lisoniy birliklar bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi: lisoniy vositalar aspekti va tilning turli darajalarida emotsionallikni ifodalash usullari; funksional va semantik jihat; so'zning emotivligini bildiruvchi lisoniy birliklarning semantik xususiyatlari; emotsiyalarning lingvistik realizatsiyasini ifodalashning ijtimoiy jihati; emotsiyalarni lingvistik baholash toifalari, ekspressivlik, modallik va boshqalar bilan o'zaro bog'liqligi jihati [8].

Sh.Balli emotsiya qayerdan paydo bo'lganligi haqidagi savolga qiziqadi. Uning fikricha, emotsional komponentlar barcha darajalarda mavjud bo'ladi. Sh.Balli inson gapirgandan ko'ra ko'proq his etadi, deb hisoblaydi. So'zlar birinchi navbatda insonning ongida paydo bo'ladi, tafakkurda shakllanadi va his tuyog'ularni yaratadi, shundan keyingina g'oyani yaratadi [2].

Tuyg'ular olamning hissiy manzarasining ajralmas qismidir, bu "ongning hissiy sohasi tomonidan prognoz qilingan va olamning milliy manzarsida aksiologik ustuvorliklarni aks ettiruvchi dunyoqarash"[3].

Olamning hissiy manzarasi insonning ichki dunyosi tomonidan aks ettirilgan hissiy jihatdan belgilangan pertseptiv obrazlar va tasvirlardan iborat. U lingvistik vositalar bilan ifodalanadi va o'ta milliydir, chunki "hissiyotlarning haqiqiy va namunaviy olami (lingvistik aks ettirish) hech qachon mos kelmaydi"[8].

Har bir til ma'lum bir tuyg'u haqidagi milliy obrazlar va g'oyalarga asoslangan o'ziga xos vositalar to'plamidan foydalanadi.

Inson xarakteriga xos xulq-atvorning frazeologizmlar tarkibida motivlashishi, iboralarning xususiylikdan umumiylikka o'tishi, frazeologik birliklarning ko'chma ma'noga ega bo'lishi hamda o'zi mansub bo'lgan xalqning realiyalarini shakllantirib berishi tilning frazeologik fondini boyitadi [13].

V.fon Humboldt ta'kidicha, istalgan tilda o'sha tilda so'zlashuvchi millat xarakterini ifodalovchi lisoniy xususiyatlar mavjud. Har qanday holatda ham millat tilining, hatto millat o'zining paydo bo'lgan vaqtini aniq bilish gumon. Tarixchilarning fikricha, til o'ziga tegishli bo'lgan millat ichida shakllanadi [14]. Tilning o'ziga xos lingvistik tabiatidan kelib chiqib, A.A.Reformatskiy frazeologik birliklarning paydo bo'lishi zamon va makon bilan qat'iy bog'liqligini, ular har bir tilda individual va o'ziga xos bo'lib, mazkur turg'un birikmalarni boshqa tilga so'zma-so'z, aynan tarjima qilib bo'lmashligini ta'kidlaydi [10].

Zamonaviy tilshunoslikda tilning milliy xususiyatini ifodalovchi yagona qarash va termin mavjud emas. S.M.Arutyunyan xalq ma'naviy hayotining turli tartibdagi hodisalar majmuining o'ziga xosligini namoyon etuvchi millatning psixologik xususiyatini ta'riflaydi, uningcha, milliy xarakter eng ko'p tarqalgan terminlar qatorida turadi [1].

N.Jandildin esa, milliy xarakter, bu – ijtimoiy etnik jamoaning muayyan iqtisodiy, madaniy va tabiiy sharoitlarda rivojlanishini ma'lum darajada alohidaligini namoyon etuvchi psixologik belgilarning o'ziga xos majmuidir, deb ta'riflaydi [4].

Fikrimizcha, kishi nutqda madaniyatni aks ettirar ekan, shu bilan birgalikda o'zini o'rab turgan olamni ham tasvirlaydi. Bu esa olamning nutqiy tasviriga olib keladi. Kishi o'zini o'rab turgan atrof-muhitni narsa va insonlarning tili, dini, madaniyati va xulq-atvoridan kelib chiqqan holda tasvirlaydi. Inson qabul qilgan yoki ko'rib turgan ma'lumotni o'ziga xos tarzda ongida yig'adi va ichki dunyosidan kelib chiqqan holda uni nutqiga chiqaradi. Etnik jamoani tavsiflovchi "milliy xarakter" tushunchasi, bir tomondan, shu xalq temperamentini anglatasa, ikkinchi tomondan, uning xarakterli belgilari va qadriyatlarini, jamiyatni boshqaruvi hamda mehnatga munosabatini aks ettiradi.

Mavzu tahlili doirasida hozir milliy xarakter tushunchasi nima va u, umuman, tilshunoslikda mavjudmi, degan savol tug'iladi. Lingvomadaniyatshunoslikning bu sohasini o'rganishda etnopsixolog T.G.Stefanenko quyidagi tamoyillarni e'tiborga olish zarur ekanligini ta'kidlaydi: etnos xarakteri – uning namoyandalarini alohida xarakterlari majmui emas, balki tipik xarakterlarining belgisi bo'lib, u ko'p sonli individlarda turli darajada va turli birikmalarda namoyon bo'ladi [12].

Eng avvalo, milliy xarakterni o'rganish uchun shu xalqning tarixi, ijtimoiy tuzilmasi va madaniyatini o'rganish

zarur. Ulardagi milliy qadriyatlarni xalqning yashash tarzi, diniy e'tiqodlarini shu jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va geografik shart-sharoitlariga bog'liq holda tushunish o'rinni bo'ladi. Shuning uchun ham so'nggi paytlarda adabiyotlardan milliy xarakter termini yo'qolib, uning o'rniga mentalitet tushunchasi egallay boshladi. Shubhasiz, asosiy madaniy qatlamning katta qismini leksika tashkil etadi va bu aspekt turg'un iboralar, frazeologizmlar, idiomalar, maqol va matallar, ya'ni xalq donoligi va diniy e'tiqodi asosida uning madaniy tajribasi natijalarida namoyon bo'ladi. frazeologik birliklarning aksariyati o'zining ichki shaklida ijtimoiy-madaniy o'ziga xoslikni, xalqning yashash shart-sharoitini va uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xosligini aks ettiradi.

V.N.Teliya ko'rsatib o'tganidek, frazeologik birlik tarkibidagi obrazlar tizimi millat dunyoqarashining shakllanishida uning moddiy, ijtimoiy yoki ma'naviy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi, shu bois ular o'sha millatning milliy-madaniy tajribasi, an'analari, urf-odatlariga haqida ma'lumot beradi. Hissiy-emotsional xususiyatlarga ega frazeologizmlar ma'lum bir tilning milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlarini shu tilda so'zlashuvchi xalqning fikrlashi, dunyoqarashi, rivojlanishi, mifologiyasini avlodlardan avlodga yetkazishda kolorit ismlar orqali til qatlamini hosil qiladi. Frazeologiyaning antropotsentrik paradigmasi bo'yicha V.D.Boyarkin, V.M.Mokiyenko, L.I.Stepanova, F.F.Farxutdinova rus tili materiali; T.V.Lixovidova, YE.V.Safronova, M.P.Tarasevichlar ingliz tili materiali; N.R.Filliki frantsuz tili materiali; YE.F.Kudina, N.V.Muravlyova nemi tili materiali asosida salmoqli ishlarni amalga oshirishganlar. Har qanday tilning frazeologik fondida atoqli ot komponentli frazeologizmlar mavjud. A.I.Molotkovning atqoli ot bilan bog'liq frazeologik birliklar yuzasidan o'tkazgan tadqiqotiga ko'ra ular umumiy frazeologik birliklar tarkibining 2%ni tashkil qiladi [9].

Xalqning milliy-madaniy o'zligini ko'rsatish va o'zigagina xos xususiyatlarini berishda tildagi frazeologizmlar katta ahamiyatga ega. Biroq frazeologik kategoriyalar, kontseptlar, stereotiplar, milliy-madaniy etalonlar olam milliy manzarasining talqini bilan jamiyatdagi mavjud moddiy, ijtimoiy yoki ma'naviy madaniyat ayni madaniy mazmunga ega obraz orqali ochiladi. Madaniy-milliy etalonlar, stereotiplar nutqda obrazli ibora yasaydi va muayyan mentalitetning umumiy lingvomadaniyati uchun xos belgilarga ega bo'ladi. Har bir tildagi frazeologizmlarda olamning nutqiy manzarasini ifodalovchi madaniy ma'no yashiringan bo'ladi. Muayyan bir tildagi olam manzarasining o'ziga xosligi qardosh bo'lgan va qardosh bo'lmagan tillarni chog'ishtirib o'rganishda namoyon bo'ladi. Biz ichki dunyomizni aniq ta'riflashga va nima tasavvur qilayotganimizni to'laqonli tasvirlashga o'qimiz. Chunki kundalik ishlarimizning ko'pchiligini odat yuzasidan amalga oshiramiz, ularda kattalar tajribasini va madaniyat izlarini hamisha ham payqayvermaymiz.

Xalqning milliy-madaniy o'zligini ko'rsatish va o'zigagina xos xususiyatlarini berishda frazeologizmlarni antropologik paradigma nuqtai nazaridan o'rganish uchun, albatta, inson bilan bog'liq muammolarni nazardan qochirmaslik zarur, chunki tilning frazeologik tarkibida mujassamlashtirilgan obrazlar tizimi o'z navbatida xalqning milliy-madaniy tajribasi va an'analari xususida madaniy axborot yetkazish vazifasini bajaradi.

Milliy-madaniy xususiyatga ega frazeologizmlarning aksariyati lakuna frazeologik birlik hosil qiladi, ya'ni bunday birliklar bir tilda frazeologik birlikni ifodalasa, boshqa tilda erkin so'z birikmasi hosil qiladi. Masalan, frantsuz tilida: faire la rue Michel (argo) yetarli bo'lmoq; Faire la compte (hisoblashmoq) va Michel - le - Compte (ko'cha nomi) iboralari kalambur natijasida hosil bo'lgan.

Frazeologizmlarning bu turi tilning o'ziga xosligini to'liq aks ettiradi, chunki aynan ular muayyan mamlakatning urf-odatlarini, realiyalarini, tarixiy faktlari bilan bog'liq. Bu singari frazeologik birliklar yorqin milliy xarakter ifodalaydi. Frazeologizm tarkibidagi toponimik madaniy komponent semantikasi faqat geografik axborot bilan chegaralanib qolgan bo'lsa, unda toponimning tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarining keng qatlami qabul qilinmasdan qolardi. Toponim

komponentli frazeologizmning asosida shu toponim bilan bog'liq assotsiatsiya yotadi.

Tilning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar xilma-xil bo'lib, ular geografik, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy va madaniy jihatlar bilan bog'liq. Geografik omilga tabiiy obyektning o'ziga xosligi mos keladi. Bularga bir-biridan uzoq bo'lgan relyef, iqlim, flora, fauna va h.larni kiritish mumkin. Masalan, Être de la Champagne pouilleuse (so'zma-so'z: "qashshoq shampanlik bo'lmoq") – kambag'al bo'lmoq. Shampān–Sēnā–ē–Marina daryosi bo'yidagi Fransiyaning tarixiy provinsiyasi. Ingliz tilida old as the hills – eski, juda qadimiy (dunyo kabi ko'hna, eski kiyim yoki juda qadimiy tarixiy voqea singari).

Moddiy madaniyat insonning ishlab chiqarishi va faoliyati, savdo, hunarmandchiligi bilan bog'liq nomlarda aks etadi: Un coup de Trafalgar iborasi – 1805 yil 21 oktabr admiral G.Nelson boshchiligidagi ingliz eskadrilyasi va admiral P.SH.Vilneva boshchiligidagi frantsuz-ispān floti o'rtasidagi

dengiz jangi natijasida yuzaga kelgan. Bu jangda frantsuz-ispān floti tor-mor etildi va Britaniya orollariga qo'shin tushirish to'g'risidagi Napoleon rejasiga nuqta qo'ydi. Natijada ingliz floti dengizda 100 yildan ortiq humron bo'lish imkoniga ega bo'ladi[13]. Ingliz tilida, Bob's your uncle! – Bob sizning amakingiz! Bu murojaat oxirida ishlatiladigan undov, xech qanday muammo yo'q, degan ma'no bildiradi. Afsonaviy qahramon XIX asr mashhur Britaniya davlat arbobi Artur Balfur amakisi Rober Sesil (keyin bir lahzaga Buyuk Britaniya Bosh vaziri) homiyligi tufayli Vazirlar Mahkamasiga osongina yo'l oldi [15].

Xulosa. lisoniy birliklarga berilgan tavsif o'z tabiatiga ko'ra lingvistik, mantiqiy, tarixiy, ijtimoiy, psixologik xususiyat kasb etadi. Frazeologik birlik tarkibidagi obrazlar tizimi millatning dunyoqarashi shakllanishida uning moddiy, ijtimoiy yoki ma'naviy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham ular o'sha millatning milliy-madaniy tajribasi, an'analari, urf-odatlar haqida ma'lumot bera oladi.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнян С.М. Нация и её психический склад.– Краснодар,1966.– 186 с.
2. Балли Ш. Французская стилистика / Ш. Балли; пер. с фр. К. А. Долинина; под ред. Е. Г. Эткинда. – М. : Изд-во Инostr. лит.,1961. – 394 с.
3. Бородкина Г.С. Концепты «Angst» и «Freude» в семантическом пространстве языка : на материале нем. яз. и его австр. варианта : автореф.дис. ... канд. филол. наук : 10.02.04 / Галина Степановна Бородкина; Воронеж. гос. ун-т. – Воронеж, 2002. – С.13.
4. Джандильдин Н. Природа национальной психологии. Алма-Ата, 1971. – 122 с.
5. Джемс У. Эмоция / У. Джемс // Психология мотиваций и эмоций :учеб. пособие / под ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, М. В. Фаликман. – М., 2002. –С. 91-107. – (Хрестоматия по психологии).
6. Леонтьев А. Н. Эмоции / А. Н. Леонтьев // Философская энциклопедия : в 5 т. – М., 1970. – Т. 5. – С.553-556.
7. Lavirey M. La puissance des emotions : comment distinguer les vraies des fausses / M. Larivey. – Montréal : Ed. de l' homme, 2002. – 328 p.
8. Шаховский В.И. Эмотивный компонент значения и методы его описания:учеб. пособие к спецкурсу / В. И. Шаховский. – Волгоград: Изд-во ВГПИ, 1983. – 91 с.
9. Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Л.: Наука, 1977.– 284 с.
10. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 1999. – 536
11. Скоробогатова Т.И. Французская фразеология в зеркале исторической памяти. – Ростов-на-Дону: Логос, 2009 – 212 с.
12. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – М.: Аспект Пресс, 2003. – 368 с.
13. Шаховский В.И. Категоризация эмоций в лексикосемантической системе языка / В. И. Шаховский. – Воронеж : Изд-во Воронеж. ун-та, 1987. – С.92.
14. Хумбольдт Вильгельм фон. Язык и философия культуры. – М.: Прогресс, 1985. – С.376.
15. Sodikovna, Kurbonova Gulsara. «Comparative analysis of phrase logical fusions in the french and uzbek languages.» ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11.2 (2021): 1455-1459.